

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

F.Xalikov	
Ta'lim tizimida testologiyadan foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirishning pedagogik ahamiyati	211
A.A.Mirzayev	
Ibn al-Arabiyning tasavvufiy qarashlarining asosiy yo'nalishlari va yondashuvlari	217
S.A.Azamova	
Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishda ekologik tarbiyaning samarali yo'llari va bosqichlari	223
M.I.Yusupova	
Expression of the concept of "Patriotism" in the russian-language media.....	231
M.M.Aralov	
OTM talabalarining grafik tayyorgarlikligini rivojlantirish vositasi sifatida	235
U.Abdullayeva	
Bo'lajak kimyo o'qituvchilarining metodik kompetentligini takomillashtirishda ekologik ta'lim va tarbiyaning ahamiyati hamda ularning qiyosiy tahlili	124
Y.J.Mirzaaxmedova	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari	241
J.X.Boysunov	
Yoshlarda ma'naviy madaniyatini yuksaltirishning falsafiy mohiyati.....	246
B.I.Beshimov	
Jinoyatchilik ijtimoiy hodisa va uning tahlili	250
Z.N.Usmonov, M.A.Mirzajonova	
Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarining jismoniy madaniyat fani nazariy bilim asoslarini o'qitishni monitoringi	255
M.X.Raxmonova, M.O.Karimova	
Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy potensialini pivojlantirishning dolzarbligi va mohiyati....	260
N.S.G'afurova	
Ijtimoiy tarmoqlar punktuatsiyasining pragmatikasi.....	261
G.M.Камалова	
Методология преподавания физической культуры в вузах на современном этапе.....	266
R.M.Ubaydullayev	
Qishloq qizlari jismoniy tayyorgarligini tabaqalashtirilgan metodika orqali baholash	270
A.K.Nafasov	
Tarixda sivilizatsiyalarning shakllanishi tarixi xususida	274
F.A.Ikramov	
Mustaqil ta'lim faoliyati asosida talabalarining huquqiy ta'limini tashkil etishning pedagogik omillari.....	277
D.T.Tursunova	
Talaba xotin-qizlar ijtimoiy faolligini rivojlantirishning mazmuni va psixologik asoslari	281
D.D.Boymirzaeva	
O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarida tashkiliy faoliyat va boshqaruv amaliyotining mavjud muammolari tahlili	286
I.I.Soliyev	
Yangi O'zbekistonda OTMLar boshqaruviga xalqaro standartlarni joriy qilish vazifalari.....	292
S.S.Qozaqova	
Hikoya tuzishga o'rgatish maktabgacha yoshdagi bolalarning bog'lanishli nutqini rivojlantirishning muhim vositasi sifatida	298
F.A.Askarov	
Jismoniy tarbiya darsi jarayonida interfaol usullar ta'lim samaradorligini asosiy bo'g'ini sifatida ..	304
D.Z.Isaboyeva	
Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik psixologik asoslari (xalqaro baholash dasturi)	308
M.I.Ne'matov	
O'quvchilarning jismoniy madaniyatini rivojlantirishning etno-pedagogik asoslarini takomillashtirish	311

**YOSHLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK
TARBIYANING SAMARALI YO‘LLARI VA BOSQICHLARI****ЭФФЕКТИВНЫЕ ПУТИ И ЭТАПЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В
ФОРМИРОВАНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ****EFFECTIVE WAYS AND STAGES OF ENVIRONMENTAL EDUCATION IN THE
FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN YOUTH****Azamova Sitora Ayonovna¹**¹Shahrisabz davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasida o‘qituvchisi**Annotatsiya**

Maqolada ekologik globallashuv sharoitida yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishning samarali yo‘llari va ekologik tarbiyaga bo‘lgan ehtiyoj haqida fikrlar bildirilgan. Ekologik tarbiyani ta‘lim muassasalarida olib borilishi nafaqat tabiatni asrash, balki inson salomatligini saqlashda ham alohida ahamiyatga ega.

Аннотация

В статье высказываются мнения о необходимости экологического образования и эффективных путях формирования экологической культуры среди молодежи в условиях экологической глобализации. Проведение экологического образования в образовательных учреждениях имеет особое значение не только для сохранения природы, но и для сохранения здоровья человека.

Abstract

The article expresses opinions on the need for environmental education and effective ways to form an environmental culture among young people in the conditions of environmental globalization. Conducting environmental education in educational institutions is of particular importance not only for the conservation of nature, but also for the preservation of human health.

Kalit so‘zlar: globallashuv, ekologiya, ekologik madaniyat, ekologik tarbiya, ekologik xavfsizlik, hadis, muvozanat.

Ключевые слова: глобализация, экология, экологическая культура, экологическое образование, экологическая безопасность, хадисы, баланс.

Key words: globalization, ecology, environmental culture, environmental education, environmental safety, hadith, balance.

KIRISH

Jahonda kechayotgan global o‘zgarishlar ekologik jarayonlarni avj oldirib yubordi. Bugungi kunda ekologik ta‘lim va tarbiyaning mushtarak-mujassam, uzluksiz, barcha uchun tushunarli tizimini yaratish muammosi ham dolzarb bo‘lib turibdi. Kishilarda ekologik madaniyatni tarbiyalash, ularning dam olishini, atrof-muhitni asrash borasidagi faoliyatini tashkil etish masalalari kun tartibida turgan eng muhim muammolardan biridir. Ma‘naviy-ma‘rifiy muassasalar, ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro hamkorlikda ularni mustahkamlash, chuqurroq tahlil qilish vazifalarini bajaradi. Ekologik madaniyatni shakllantirishga mutassaddi muassasalar kishilarning tabiatni muhofaza qilish imkoniyatlarini namoyon etishlari uchun, zarur shart-sharoitlarni yaratish borasida, davlat yoki nodavlat tashkilotlari, jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikdagi faoliyati bu boradagi ishlarning samarasini oshiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Inson ekologik madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslariga doir ilmiy tadqiqot materiallari, jumladan, inson ekologik madaniyatiga jamiyat ehtiyojini ortishi, ekologik madaniyatni shakllantirishda ta‘lim-tarbiyaning o‘rni, ekologik muammolarning umumsayyoraviy tus olgani mutaxassislarning mavzuga e‘tiborini nihoyatda kuchaytirdi va ko‘plab ilmiy asarlar yaratildi. B.N.Omonov, G.A.Ochilova, Kh.Sh.Nomozov, Yu.Kh.Manzarov suv tanqisligi muammosi va ekologik globallashuvga doir manbalar, B.Omonov, S.Mamashakirov tadqiqotlarida tahlil qilingan. Tahlil natijalarida yoshlar ekologik madaniyatini shakllantirishda milliy va umuminsoniy tamoyillarini ko‘zda tutuvchi, ta‘lim-tarbiyaning roliga alohida e‘tibor qaratilgan.

M.Nazarov, D.M.Ahmedova, T.Axunova (2016) bugungi kunda ta‘lim tizimining fidoiylari XXI asr tsivilizatsiyasi darajasida yangicha odob va axloqqa asoslangan milliy va tarixiy ekologik dunyoqarashni kuchaytirish, yoshlarda ekologik bilim va madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishni o‘zining muhim va mas‘uliyatli vazifasi sifatida sidqidildan bajarishi lozimligini

ta'kidlaydilar. D. Ahmedova, Sh.Mamajonov, M.Davidovning (2017) "Uzluksiz ta'limda o'quvchi-yoshlarga ekologik ta'lim-tarbiya berish usullari" mavzusidagi uslubiy qo'llanmasida "Ekologiya" fanini o'qitishda lokal darajadagi pedagogik texnologiyalardan "Keys", "Insert", "Klaster", Venn diagrammasi, "Aqliy hujum", "Kichik guruhlarda ishlash", "Atamalar zanjiri", "Atamalar varag'i", tezkor o'yinlar va o'yin mashqlarning turli shakllaridan foydalanish tavsiya etiladi. O'quvchi-yoshlarning ekologik ong, madaniyatini oshirishda buyuk ajdodlarimiz Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Zahridin Mahammad Bobur kabi buyuk mutaffakirlarimizning meroslari, hadislar va maqollardan darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanilishi, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan tadbirlar o'tkazilishi bayon etilgan.

Yoshlarning mavjud vaziyatda hayot kechirish ko'nikmalarini o'zlashtira olishlari ijtimoiy zaruriyatga aylanmoqda. Shu bois, aholining hayot kechirish sharoitlariga ta'sir ko'rsatuvchi ekologik-gigiyenik jarayonlar mazmunini chuqur o'rganish, tahlil qilish, uning shaxsiy salomatligini asrashga oid tibbiy bilimlardan xabardor etish davr talabidir. Bugungi kunda ekologik xavfning oldini olish, tabiatni asrash va uning mavjudligini ta'minlash masalasi xalqaro maydonda o'ziga hos dolzarblik kasb etmoqda. Ekologik muammolarning ijobiy hal etilishi nafaqat tabiatni asrash, balki inson salomatligini saqlashda ham alohida ahamiyatga ega. Inson hayotini tabiiy muhimsiz tasavvur etish qiyin. Shuning uchun ham tabiatni muhofaza qilish, uning sof va musaffoligini saqlash insonning muqaddas burchi hisoblanadi. Tabiat dunyosidagi yil fasllarining o'zgarib turishi ma'lum tabiat qonuniyatlari asosida ro'y beradi. Insoniyat oldida turgan eng katta muammolardan biri tabiatni tabiiy holda saqlab qolishdir. Bugungi kunda deyarli barcha fan sohalarida ham ekologiya muammolarini hal etish masalalari bo'yicha ish olib borilmoqda. Fan texnika taraqqiyotining jadallashuvi, ishlab chiqarish texnologiyalarining nomukammalligi, insonlarning tabiatga nisbatan iste'molchilik ehtiyojining ortib borishi jamiyat bilan tabiatning o'zaro aloqalarining yomonlashuvi sababidir. Ekologik tarbiyaning ilk ildizlari insoniyatning qadim turmush tarziga borib taqaladi.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Qadimdan insonlar tabiat bilan ehtiyotkorona muomalada bo'lishga intilishgan va buni yosh avlod ongiga singdirishga harakat qilishgan. Ibtidoiy odam o'z hayotining tabiat bilan chambarchas bog'liqligini his qilgani bois, hatto olamning asosida ham to'rtta tabiat unsuri-yer, suv, havo, olov (quyosh) yotadi deb qaragan va aynan shu tabiat resurslarini ko'proq asrab-avaylashga intilgan. Ularning hayotiyiligiga qattiq ishongan. Qadimgi insonning bunday ibtidoiy tasavvur-tushunchalari uning o'z aqliy va jismoniy kuchiga ishonchi orta borgani sayin o'zgarib boshlagan. Endi inson o'z aql kuchiga tayanib, tabiatdan juda ko'p narsalar talab qila borgan. Tabiatdagi narsa hodisalarga o'z ta'sirini o'tkazib, turmush tarzi uchun turli narsalar bunyod etishga kirishgan. Jumladan, tog'utoshlar orasidagi g'orlardan o'ziga boshpana topgan Yoki g'orlarda yashab, turli jonivorlarning go'shti bilan oziqlanib, tirikchilik o'tkazib kelayotgan ibtidoiy inson uchun hayvonlar ham homiy-madadkor sifatida totemistik tasavvur uyg'otgan. U katta va yirik hayvonlarni ovlaganida juda quvongan. Shu asosda unda kichik narsadan ko'ra katta narsaning manfaatliroq bo'lishi haqida tushuncha paydo bo'la boshlagan. Mana shu alfozda qadimgi inson tasavvurida hajm tushunchasi asta-sekin paydo bo'la boshlagan. Xullas, qadimgi ajdodlarimiz tabiatni jiddiy kuzatar ekan, undan o'zi uchun foydali ko'p narsalarni kashf etishga muvaffaq bo'lgan. Shu kuzatishlar zaminida inson tabiatdan nusxa ko'chirib, juda ko'p bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgan. Chunki tabiat azaldan insonni to'ydirib, yedirib, ichirib, kiyintirib kelayotgan ona kabi g'amxo'r va mehribondir. U haligacha insondan o'z saxovatini darig' tutmay kelayotir. Bunga javoban, insoniyat ham ona kabi mehribon tabiatni har tomonlama asrab-avaylashi, uning boyliklaridan oqilona va rejali foydalanishi juda muhimdir. Demak, tabiatni asrash har kimning insoniy burchidir. Tabiatni asrab avaylash qadimiy ajdodlarimizdan merosdir. Xalqda ekologik tarbiyani amalga oshirishning xalqona shakllari mavjud bo'lgan. Bu boradagi xalqona an'analarni o'rganish va ularning hozirgi turmush tarzimizga mos keladigan tomonlarini aniqlab, ekologik tarbiya jarayonida foydalanish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Xalq orasida keng tarqalgan ayrim ta'qiqlar ham bevosita ekologik tarbiyaga yo'naltirilganligi bilan diqqatni tortadi. Xullas, ekologik tarbiya insoniyat ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotining har bir bosqichida o'ziga xos tarzda amalga oshirilgan. Dastlab ibtidoiy tuzum sharoitida shakllana boshlangan ekologik tarbiya mezonlari qadimgi odamning animistik va totemistik tasavvurlari asosida targ'ib qilina boshlangan bo'lsa, keyinchalik uning qo'rquvi va ixlosi zaminida yaratilgan tabu-ta'qiqlar ko'magida singdirila boshlandi. Nihoyat, insoniyatning badiiy tafakkuri rivojlanishi bilan uning donoligi, aqlu-zakovati bilan yaratilgan ertak, qo'shiq, topishmoq, maqol kabi xalq og'zaki ijodi namunalarda ekologik tarbiyaga oid ayrim fikr va qarashlar targ'ib qilina boshlandi.

O'rta asrlar tuzumi sharoitida ekologik tarbiya ko'proq islom dini talablari bilan bog'liq holda targ'ib va tashviq qilindi. Xalqning ona tabiatni asrab-avaylash to'g'risidagi o'y kechinmalari, qarashlari, tasavvur-tushunchalari islom dini hukmronligi davrida yanada mustahkamlandi. Aytaylik, namoz orqali ekologik tarbiyaning eng muhim sharti shaxsiy gigiyenaga keskin rioya qilish qat'iy talabga aylandi. Shuningdek, islomning eng muqaddas kitobi Qur'oni Karimda ham, hadislarda ham ekologik tarbiya zaruriyati va shartlari xususida juda ko'p qimmatli fikr-mulohazalarga duch kelish mumkin. Bundan shu ravshanlashadiki, hatto Ollohni tanish va unga to'la iymon keltirish uchun ham borliqqa, atrof-muhitga ibrat nazari bilan qarab, tabiat muvozanatini saqlab qolish to'g'risida har bir inson qayg'urmog'i shart. O'tmishning buyuk mutafakkirlari Abu Rayhon Beruniy, Ismoil Jurjoniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy va boshqalar tabiatni asrash, unga mehr ko'zi bilan qarash lozimligini qayta-qayta uqtirganlar. Abu Ali ibn Sino o'zining Tib qonunlari kitobida yil fasllarining tabiati va undagi o'zgarishlar, havoning tabiiy holatiga zid bo'lgan yomon o'zgarishlarning ta'siri, ayrim kasalliklar va ularni davolash uchun ishlatiladigan sodda va murakkab dorilarga oid qator tavsiyanomalar bergan. Beruniyning oxirgi asari Dorivor o'simliklar haqida (Saydana) kitobida Sharqda, ayniqsa, Markaziy Osiyoda o'sadigan dorivor o'simliklarning to'la tavsifi berilgan. Forobiy olamning turli-tumanligini, tabiatning nihoyatda boyligini e'tirof etib, ularning asosida 4 unsur yer, suv, olov va havo yotishini, shu bilan birga, olamning ibtidosi, boshlang'ich yaratuvchi kuchdan nurlanish yordamida vujudga kelganligini ta'kidlaydi. Forobiy o'zining falsafiy qarashlarida odamning tuzilishini, ruhiyatini, moddiy va ma'naviy olamini o'rganishga ahamiyat beradi. U o'simlik va insonga oid xususiyat va qobiliyatlarni bir butun holda quvvat atab, uni o'sish quvvati, hayvoniy quvvat va insoniy quvvat tarzida uchga ajratadi. Baxt saodatga erishuv haqidagi risolasida bilimlarni o'rganish tartibi birma-bir sanab o'tiladi: bilish zarur bo'lgan ilm, bu olam asoslari haqidagi ilmdir. Uni o'rgangach, tabiiy ilmlarni, tabiiy jismlar tuzilishini, shaklini, osmon haqidagi ilmlarni o'rganish lozim. Jurjoniy dunyoqarashiga xos xususiyat butun borliqni bir-biriga qonuniy ravishda bog'langan bo'lakchalardan iborat yagona tana sifatida ta'riflashdir. Uning fikricha, moddiy dunyoni tashkil etgan narsalar asosida to'rt unsur, ya'ni olov, havo, suv va tuproq yotadi. Uch unsurdan iborat boshqa jismlar, ya'ni metallar, o'simliklar va hayvonlar esa, yuqorida aytilgan to'rt unurning bir-birlari bilan qorishishining hosilasi sifatida kelib chiqqandir. Sho'rolar tuzumi davrida tabiatni asrab-avaylash yo'nalishida qilingan eng xayrli ish tobora yo'qolib borayotgan o'simlik va hayvonlar turlarini aniqlab, ularni saqlab qolishga qaratilgan Buni O'rta Osiyo misolida ko'rmoqchi bo'lsak, kommunistik mafkura talabi bilan paxta yakka hokimligining o'rnatilishi oqibatida Oroldek buyuk va qudratli dengiz halokatga uchragani, undagi qanchadan-qancha noyob suv jonivorlari, baliq turlari qirilib ketgani, iqlim o'zgargani, tuproq tarkibida jiddiy salbiy o'zgarishlar yuz bergani hodisalarini eslamaslikning iloji yo'q. Paxtaga sepiladigan dori-darmonlar ham havoning ifloslanishiga, tuproq qatlamining zararlanishiga, aholi o'rtasida yuqumli kasalliklarning keng tarqalishiga olib keldi. Natijada bolalar o'limi soni oshdi, inson umrining o'rtacha yashash ko'rsatkichi kamaydi. Xalqimiz mustaqillikka erishgach davlat ahamiyatiga molik qator qarorlar qabul qilindi. Shu sababdan bizda ekologik tarbiya ijtimoiy-iqtisodiy va davlat ahamiyatiga molik masalaga aylandi va ta'lim sohasida respublika doirasida amalga oshirilayotgan asosiy tadbirlardan sanaladigan bo'ldi. Bolalar qalbida tabiatga muhabbat qancha erta uyg'otilsa, ularning tabiat bilan bog'lanishlari shunchalik uzviylashadi. Bola tabiatga erta mehr qo'yadi. Bu, shubhasiz, tarbiyachilar va kattalarning faoliyati bilan chambarchas bog'langan bo'lib, insonni o'rab olgan olamning murakkabligini anglashlariga, tabiat inson turmush tarziga ta'sir etuvchi vosita ekanligini tushunishlariga, bugunimiz va ertamiz uchun naqadar muhimligini bilib olishlariga yordam beradi.. Shu bois kichik yoshdagilarga ekologik ta'lim berish bugungi kunning eng muhim pedagogik muammosiga aylandi. Ekologik ta'lim-tarbiya xalq ta'limining barcha bo'g'inlarida, shu jumladan, boshlang'ich ta'lim muassasalarida amalga oshirilishi zarur jarayonlardan sanaladi. Ta'kidlash lozimki, hozirgi kunda inson bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirish masalasi nihoyatda dolzarb tus olib, fan va texnikaning rivoji jamiyatning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini har tomonlama to'la qondirish uchun keng imkoniyatlar ochmoqda, shu bilan birga tabiiy resurslardan to'liq foydalanishni taqozo qilmoqda. Resurslardan foydalanish jarayonida ko'pincha tabiatga salbiy ta'sir ko'rsatish hollari sodir bo'lmoqla. Shuning uchun ham Respublikamiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish lozim Tabiatga muhabbat-juda keng qamrovli va murakkab hissiyotdir, U yuksak ruhiy va aqliy qatlamlarni o'z ichiga oladigan murakkab bir butunlikni tashkil etadi. Bu hissiyotni tarbiyalashni bolalikniig erta yoshidan boshlash muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Har bir bolada o'zi yashab turgan mahalliy o'lka va O'zbekiston tabiatiga muhabbat bilan qarash, unga ko'ngil qo'yish

ishtiyoqi o'sib boradi. Shundan ko'rinib turibdiki mazkur jarayonni tabiatni muhofaza qilishning nazariy asoslariga bog'lamasdan turib, bu boradagi maqsadga erishib bulmaydi.

XULOSA

Ekologik ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadi yoshlarning faqat shaxsiy ehtiyojlarini qondirishdan iborat emas, balki jamiyat manfaatlariga ham yo'naltirishni e'tiqod darajasiga ko'tarishdir. Chunki, har qanday ekologik faoliyat faqat konkret shaxsning ehtiyojlarini emas, balki pirovardida jamiyat ehtiyojlarini qondirishga qaratilgandir. Tabiiy resurslarni o'z ehtiyojlarimizga sarflashni qanchalik tejasak, insoniyat va tabiat orasidagi muvofiqlikni tiklashga shunchalik erishamiz. Yoshlarda ekologik ongni shakllantirish, ekologik ta'lim va tarbiyani rivojlantirish tabiatni himoyalash strategiyasining birdan-bir manbaidir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib, ekologik madaniyatni shakllantirib bo'lmaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.-T; O'zbekiston,NMIU,2018.
2. Mirziyoyev Sh.M. "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida" gi Farmoni 21-aprel 2017-yil Toshkent.
3. I.A.Karimov Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch.-T;Toshkent,Ma'naviyat,2010,
4. Omonov.B.N. "Ekologik tarbiya tizimida ongli ehtiyojni shakllantirish masalalari" O'zMU xabarlari. -T.: -№ 1/2. 2017. -B.206-210
5. Omonov.B.N "Ekologik globallashuv va uning O'zbekistondagi ekologik muhitga ta'siri",T-2021 Monografiya
- 6.I.A.Karimov Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch.-T;Toshkent,Ma'naviyat,2010,
7. A.To'xtayev. Ekologiya.T., "O'qituvchi", 1998 y.
8. P.S.Sultonov. B.P.Axmedov. Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish asoslari.-T.:2004-yil.
9. Ochilova C.A., Amonov B.N., Azamova S.A, Manzarov Y.K. [Ecological Globalization And Its Social Place In The Globalization System Of Processes. https://sifisheressciences.com/journal/index.php/journal/article/view/1601/1638](https://sifisheressciences.com/journal/index.php/journal/article/view/1601/1638)
10. A3AMOBА, C. THE NEED TO FOR ENVIRONMENTAL EDUCATION OF YOUTH IN THE CONDITIONS OF ENVIRONMENTAL GLOBALIZATION.O 'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2022,[1/12] ISSN 2181-7324.
11. Azamova S.A. Ekologik globallashuv sharoitida yoshlarda ekologik ta'lim-tarbiyani shakllantirish zaruriyati .O'zMu xabarlari 1/12, Toshkent-2022.